



# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1-iyul holatiga 2893,4 ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan 26,0 ming kishiga yoki 2,0 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1874,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,8 %), qishloq aholisi soni 1018,6 ming kishini (35,2 %) tashkil etdi.

## E'tibor bering: 2021- yil yanvar-iyun


- Aholi soni **26,0 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **33,7 ming nafarni** tashkil etdi.
- **6,3 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **8,6 mingta nikoh** va **1,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2021- yil yanvar-iyun oylarida)




## Demografik holat

### Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2021- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.km.ga 388,9 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.km.ga 4346,0 kishi), Namangan (892,8 kishi), To'raqo'rg'on (844,3 kishi) va Norin (808,1 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (77,1 kishi) va Mingbuloq tumanida (174,8 kishi) to'g'ri keladi kelmoqda.

### Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2021- yil 1-iyul holatiga ming kishi)



## Demografik holat

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskul-larning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 33,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 23,6 promilleni tashkil etdi, hamda 2020 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega oshganligi (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 22,7 promille bo'lgan) kuzatildi.


O'g'il bolalar:  
17,4 ming nafar



Qiz bolalar:  
16,3 ming nafar



Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti  
(2021- yil yanvar-iyun, 1000 aholiga nisbatan, promille)



## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 6,3 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,4 promilleni tashkil etdi, 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilmagan. (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 4,5 promille bo'lgan).


Erkaklar:  
3,4  
ming kishi



Ayollar:  
2,9  
ming kishi



**Tumanlar (shahar) kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti**  
(2021- yil yanvar-iyun, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni.** 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 398 ta o'lim, 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 10,7 promilleni tashkil etdi.



**Tumanlar (shahar) kesimida 1 yoshgacha vafot etganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2021- yil yanvar-iyun, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

2021- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 60,5 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,5 %i - o'simtaldan, 5,4 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,8 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,6 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 %i - yuqumli va parazitari kasalliklaridan hamda 12,7 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 398 nafarni tashkil etib, ularning 44,0 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 26,1 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 16,3 %i - tug'ma anomaliyalardan, 0,5 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,5 %i - yuqumli va parazitari kasalliklardan va 4,6 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2021- yil yanvar-iyun holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




## Demografik holat

**Nikoh.** 2021- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 8,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,0 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan Namangan shaharida 1,0 mingtaga, To'raqo'rg'on tumanida 0,3 mingtaga va Pop tumanida 0,3 mingtaga ko'paygan.

### Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsienti (2021- yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Nikohdan ajralishlar.** 2021- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,5 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2020- yilning mos davriga nisbatan Namangan shaharda 0,2 mingtaga va Chust tumanida 0,1 mingtaga ko'paygan.

**Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti**  
(2021- yil yanvar-iyun holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)





## Demografik holat

**Migratsiya.** 2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,3 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,5 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 1,7 ming kishi bo'lgan.


### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun
<b>Ko'chib kelganlar</b>	1,7	1,8
<b>Ko'chib ketganlar</b>	3,4	3,3
<b>Migratsiya saldosi</b>	-1,7	-1,5




## Demografik holat

### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni




### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni



## Demografik holat

**Namangan shahridagi demografik holat.** Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2021- yil 1-iyul holatiga 651,9 ming kishini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan 14,6 ming kishiga yoki 3,1 % ga o'sgan.

### Namangan shahri aholisi tabiiy harakati



2021- yilning yanvar-iyun oylarida 8,9 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 27,6 promilleni tashkil etdi va 2020- yilga nisbatan 1,0 ga (2020- yilning mos davrida 26,6 promille bo'lgan) o'sdi.


2021- yilning yanvar-iyun oylarida 1,6 ming ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega teng (2020- yilning mos davrida 4,8 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 1742 ta nikoh va 398 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 5,4 promilleni tashkil qilib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 3,1 promillega o'sdi. (2020- yilning mos davrida 2,3 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,2 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega (2020- yilning mos davrida 0,5 promille bo'lgan) o'sdi.

## Demografik holat

### Namangan shahridagi demografik holat.



Demografiya va mehnat  
statistikasi bo'limi  
(69) 211-72-00